

A'ZOLIK: O'ZBEKISTON JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISHI KERAKMI

Xurramov Bobur Akrom o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura 1-bosqich talabasi.

Email: boburxurramov777@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14061535>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish zarurati va JST normalari asosida savdo to'siqlarini kamaytirish va tashkilotga a'zo mamlakatlar uchun bir xil teng sharoit yaratishdagi roli muhokama qilingan. Maqolada Tashkilotga a'zo bo'lishning huquqiy shartlari va asoslari, O'zbekistonning tashkilotga a'zo bo'lishining ijobiy tomonlari hamda a'zolikka bo'lgan amaliy harakatlar tavsifi muhokama qilingan. O'zbekistonga xorij investitsiyasini jalb etish, mamlakatni global savdo tizimiga integratsiyalash, Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lgan davlatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy masalarini ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Jahon savdo tashkiloti, integratsiya, xorij investitsiyasi, global savdo tizimi, GATT kelishuvi, Bilateral tarzda kelishuv, Milliy rejim, Eng qulay rejim.

MEMBERSHIP: SHOULD UZBEKISTAN JOIN THE WORLD TRADE ORGANIZATION?

Abstract. This article discusses the necessity of the Republic of Uzbekistan joining the World Trade Organization (WTO) and the role of WTO regulations in reducing trade barriers and creating equal conditions for member countries. The article examines the legal requirements and foundations for membership, the benefits of Uzbekistan's accession to the WTO, and a description of practical steps toward membership. It also addresses issues related to attracting foreign investment to Uzbekistan, integrating the country into the global trading system, and the organizational and legal aspects of implementing trade and economic relations with WTO member countries.

Keywords: World Trade Organization, integration, foreign investment, global trade system, GATT agreement, bilateral agreements, national treatment, most-favored-nation treatment.

ЧЛЕНСТВО: ДОЛЖЕН ЛИ УЗБЕКИСТАН СТАТЬ ЧЛЕНОМ ВСЕМИРНОЙ ТОРГОВОЙ ОРГАНИЗАЦИИ

Аннотация. В данной статье рассматривается необходимость вступления Республики Узбекистан во Всемирную торговую организацию и роль норм ВТО в снижении торговых барьеров и создании равных условий для стран-участниц организации. В статье обсуждаются правовые условия и основания для членства, а также положительные стороны присоединения Узбекистана к ВТО и практические шаги на пути к членству. Вопросы привлечения иностранных инвестиций, интеграции страны в глобальную торговую систему, а также организационно-правовые аспекты торгово-экономического взаимодействия с государствами-членами ВТО также охватываются в данной работе.

Ключевые слова: Всемирная торговая организация, интеграция, иностранные инвестиции, глобальная торговая система, соглашение ГАТТ, двустороннее соглашение, национальный режим, режим наибольшего благоприятствования.

Bugungi kunda Jahon savdo tashkiloti (keyingi o‘rinlarda “JST” deb yuritiladi)ning rasmiy veb saytiga ko‘ra, tashkilotga 164 ta davlat a‘zo hisoblanadi. Bu degani dunyoda davlat sifatida tan olingan subyektlarning katta qismi tashkilotga a‘zo hisoblanadi. Qator iqtisodiy, huquqiy islohotlar sababli O‘zbekiston Respublikasida ham bir qancha sohalar rivojlanib bormoqda.

Xususan, 2023-yilda O‘zbekistonda iqtisodiy o‘shish suratlari 5.8% foizga o‘sgan¹, ushbu ko‘rsatgich keying yillarda o‘shishi prognoz qilinmoqda. Ushbu ko‘rsatgich nisbatan yaxshi o‘shish hisoblanadi. Ammo ushbu o‘shishni yanada ko‘paytirish uchun jamiyatdagi aksariyat muammolarni kamaytirish hamda imkon qadar ularni yo‘q qilish choralari ko‘rish kerak. Masalan, O‘zbekiston korrupsiyaning yuqoriligi reytingi bo‘yicha dunyoda 33-o‘rinda turadi.² Shuningdek, O‘zbekistonda davlat tashkilotlarining shaffofligi bo‘yicha esa 9 ballik sistemadan 3 balga ega hisoblanadi.³ Ushbu salbiy ko‘rsatgichlarni ijobiy natijalarga o‘zgartirish uchun albatta davlat uchun kuchli siyosiy hamkorliklar, davlatlararo erkin iqtisodiy savdo almashinuvi muhitini siyosiy jihatdan yaratish, davlatning ichki huquqiy muhitini xalqaro standartlarga hamda normalarga mos ravishda tashkil etish sa‘y-harakatlarini amalga oshirish zarur.

O‘zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishga amaliy harakatlarini bayon etishdan avval ushbu tashkilotga a‘zo bo‘lishining umumiy qoidalari va shartlari haqida qisqacha tanishish maqsadga muvofiq. Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishning asosiy shartlarini bayon etish maqsadga muvofiq. Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishning asosiy shartlari 1994-yil 15-aprelda imzolangan 16 moddadan iborat bo‘lgan Jahon savdo tashkilotini tashkil etilishi to‘g‘risidagi kelishuvda (Agreement Establishing the World Trade Organization (WTO))⁴ bayon etilgan. Ushbu kelishuvning 12-moddasi ya‘ni Jahon savdo tashkilotiga qo‘shilish uchun ko‘p tomonlama savdo bitimlar kelishuviga hamda yuqoridagi Jahon savdo tashkilotini tashkil etish to‘g‘risidagi bitimning shartlarini qabul qilish asosiy huquqiy norma sifatida keltirilgan. Yana bir huquqiy normani ta‘kidlash o‘rinliki JSTga a‘zo bo‘lish uchun har qanday davlat yoki bojxona hududi (customs territory) ariza yuborishi mumkin. Ushbu yuqorida ta‘kidlangan moddaning 2 hamda 3-bandlarida agar davlat yoki ma‘lum bir bojxona institute JSTga qo‘shilishi Vazirlar Konferensiyasi tomonidan (Ministerial Conference) tasdiqlanadi. Albatta yuqorida keltirilgan norma umumiy huquqiy majburiyat hisoblanadi. Lekin ushbu JSTga qo‘shilish uchun albatta har bir davlat o‘zining ichki qonunchilik normalari va tizimini JSTning qonunchilik normalariga muvofiqlashtirish zarur. Shuningdek, JSTga a‘zo bo‘lmoqchi subyekt boshqa a‘zo davlatlar bilan muzokaralar olib borishi kerak. Xususan, so‘ngi ma‘lumotlarga O‘zbekiston 2024-yilga qadar 18 ta davlat bilan muzokaralarni yakunladi. AQSh bilan O‘zbekistonning JSTga qo‘shilishi bo‘yicha ikki tomonlama muzokaralarni yakunlandi va 14 oy davom etgan faol muzokaralar mantiqiy manziliga yetdi.⁵ Ushbu muzokara kelishuvi juda muhim hisoblanadi. Chunki AQSh butun dunyoda o‘zining iqtisodi hamda sanoati rivojlanish darajasi yuqori o‘rinda turadi.

¹ <https://www.spot.uz/oz/2023/10/19/economic-growth/>

² https://www.transparency.org/en/cpi/2023?gad_source=1&gclid=CjwKCAjw-JG5BhBZEiwAt7JR60zj8-OH2nMaD1TgCeDoV1Ek0bydn8JPrOLO5b6PIwVQ0OU-MEl0BoCHg8QAvD_BwE

³ https://www.transparency.org/en/cpi/2023?gad_source=1&gclid=CjwKCAjw-JG5BhBZEiwAt7JR60zj8-OH2nMaD1TgCeDoV1Ek0bydn8JPrOLO5b6PIwVQ0OU-MEl0BoCHg8QAvD_BwE

⁴ https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/04-wto.pdf

⁵ <https://m.kun.uz/news/2024/11/04/aqsh-ozbekistonning-jahon-savdo-tashkilotiga-azo-bolishini-qollab-quvvatladi>

Ushbu harakatlarni amalga oshirish juda qiyin hisoblanadi, chunki O'zbekiston Respublikasi JSTda 1994-yildan buyon kuzatuvchi sifatida a'zo hisoblanadi. Simon J. Evenett hamda Carlos A. Primo Braganing hammuallifligida yozilgan "JSTga a'zolik: tajriba orqali olingan darslar" mavzusida yozilgan maqolasida ham JSTga a'zolik ko'p vaqt talab etishini ham ma'lum qilgan, xususan, "1995-yildan beri JSTga qo'shilgan 20 mamlakatning tajribasi hamda hozirda a'zo bo'lishni xohlagan 29 mamlakatning tajribasiga ko'ra, JSTga a'zolikka kirish jarayonining naqadar qiyinligini isbotlaydi. JSTga a'zo bo'lishning barcha huquqiy jihatlari va normativ huquqiy hujjatlari jamoatchilik uchun oshkor etilmagan, ayniqsa, ariza beruvchi mamlakat va JSTning a'zo mamlakatlari o'rtasidagi ko'plab ikki tomonlama muzokaralarning tartibi hamda shartlari haqida juda kam ma'lumot mavjud. Shuning uchun, JSTga a'zo sifatida kirish jarayoni haqida bir qator ishonchsizlikni keltirib chiqaruvchi ma'lumotlar va faktlar paydo bo'lgan. Yaqinda olib borilgan tadqiqotlar ushbu ishonchsizlikni keltirib chiqaruvchi ma'lumotlar va faktlarning ayrimlari haqidagi haqiqatni aniqlashga yordam berdi. Biroq, ariza beruvchi mamlakatlar hozirgi kunda ham JSTga a'zolikka kirish jarayonidagi muhim bosqichlar hali ham maxfiylikni hisobga olishlari kerak."⁶

Shuningdek, Xitoy davlati ham JSTga a'zo bo'lish vaqtida bir qancha bosqichlardan o'tgan, xususan, so'ngi bosqichni o'zida 3 ta katta harakatlar amalga oshirilgan. Xitoyning JSTga a'zoligi to'g'risida yozilgan kitobda quyidagilar keltirilgan.

➤ "Bilateral tarzda bir davlatning boshqa davlatning bozoriga kirish muzokaralarining yakuni,

➤ Ishchi guruhining davlatlar bilan ko'p tomonlama muzokaralarning yakuni va shu bilan birga Xitoyning a'zolikka kirish shartlarini belgilovchi hujjatlar, jumladan, loyihalangan Protokol va uning Ilovalari hamda Ishchi Guruhining Hisoboti,

➤ A'zolik shartlarini JSTga a'zo mamlakatlar va Xitoy davlati tomonidan tasdiqlanishi va qabul qilinishi."⁷

Umumiy olib aytganda bugungi kunda ham JSTga a'zolikning batafsil shartlari bayon aniq tasdiqlanmagan, ushbu holat amaliyotda ham juda qiyin hisoblanadi. Chunki bir davlat JSTga a'zo bo'lishi uchun boshqa a'zo davlatlar bilan hamkorlikni kelishib olishi kerak. Ushbu jarayon juda ko'plab yillarni talab qilishi mumkin, xususan yuqorida aytilganidek O'zbekiston ham bir necha yillardan beri JSTda kuzatuvchi maqomga ega hisoblanadi.

Avvalo JSTning prinsiplariga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. JSTning rasmiy veb-saytiga asosan uning 5 ta prinsipi mavjud:

1. Kamsitmaslik – ushbu prinsip 2 qismdan iborat. Birinchisi, Eng qulay rejim (Most-favored nation) ya'ni JSTga a'zo davlatlar orasida kamsitish yo'l qo'ymaslik va Milliy rejim (National Treatment) ya'ni a'zo davlat o'zining mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlariga hamda boshqa a'zo davlatlarning tovarlariga teng tartib tamoyil taqdim etish.

2. Erkinroq savdo tamoyili – savdo to'siqlarini kamaytirish, ya'ni bojxona to'lovlari va bojlarini kamaytirish. Importni taqiqlamaslik va miqdoriy cheklovlar o'rnatmaslik.

⁶ Evenett, Simon J., and Carlos A. Primo Braga. *WTO accession: lessons from experience*. World Bank Group, 2005. – 2p

⁷ Bhattasali, Deepak, Shantong Li, and William J. Martin, eds. *China and the WTO: accession, policy reform, and poverty reduction strategies*. World Bank Publications, 2004.

3. Masalan bir davlatga boshqa davlat qandaydir miqdorda mahsulot olib kiradi undan ortiqchasi taqiqladi deb norma o'rnatmaslik.

4. Oshkoralik va shaffoflik - Ba'zan savdo to'siqlarini ko'paytirmaslikka va'da berish ularni kamaytirish kabi muhim bo'lishi mumkin, chunki bunday va'da biznesga kelajakdagi imkoniyatlarni aniqroq bashorat qilish imkonini beradi. Barqarorlik va kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarni oldindan bila olish mavjud bo'lganda, investitsiyalar rag'batlantiriladi, ish o'rinlari yaratiladi va iste'molchilar - raqobatning barcha afzalliklaridan va arzonroq narxlardan be'malol foydalana oladi.

5. Adolatli raqobatni qo'llab-quvvatlash – JST ba'zida "erkin savdo" instituti sifatida tariflanadi. Ammo bu to'g'ri emas, JST tizimi ba'zi cheklangan hollarda, tariflar o'rnatilishiga va boshqa himoyaviy choralarga ruxsat beradi. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, JST ochiq, adolatli va haqqoniy raqobat uchun yo'l ochuvchi qoidalar tizimidir.

6. Rivojlanishga va iqtisodiy islohotlarga chaqirish - JST rivojlanayotgan davlatlarning global iqtisodiyotga moslashishlari uchun moslashuvchanlik zarurligini tan oladi. JST bitimlarida rivojlanayotgan davlatlarga o'z majburiyatlarini amalga oshirish uchun qo'shimcha vaqt va texnik yordam beriladi, bu esa iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. JSTning 75% dan ortiq a'zolari rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlar hisoblanadi.⁸

JSTning yuqoridagi prinsiplari eng asosiy normalar sifatida amalda qo'llanib kelinmoqda.

Jahon savdo tashkilotiga a'zolikning o'ziga xos bir qancha ustunliklari va jamiyat uchun sog'lom iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi deb aytishimiz mumkin. JSTga a'zolik bozor iqtisodiyotida monopoliyaga o'ziga xos tarzda zarba beradi deyishimiz mumkin, chunki har bir a'zo davlat boshqa davlatning bozorlariga be'malol kira olish ya'ni mahsulotlarini qo'shimcha cheklovlarsiz hamda bojarsiz olib kirishi, sotishi yoxud sotib olishi ta'minlaydi. Bugungi kunda ham O'zbekistonda turli xil sohalarda xususan, avtomobil, sanoat, tabiiy boyliklarni qazib olish va tasarruf etish kabi sohalarda hali ham tabiiy va sun'iy monopoliyaning sarqitlari saqlanib qolmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlarga ko'ra "O'zbekiston Respublikasida 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra Tabiiy monopoliya subyektlarining Davlat reyestrda 134 ta xo'jalik yurituvchi subyekt ro'yxatga olingan. Ular 11 turdagi ishlar, xizmatlar bo'yicha faoliyat olib boradi."⁹ Aynan JSTga a'zo bo'lish monopoliyaga ham qarshi kurashadi. JSTga a'zo bo'lgan davlatlardan biri, bugungi kunda butun dunyoda o'zining iqtisodi hamda ishlab chiqarish salohiyati bilan yetakchi davlat hisoblangan davlat Xitoy ham 2001-yilda a'zo bo'lgan, hamda bugungi kunda qadar juda katta iqtisodiy rivojlanish natijalariga erishgan.

Xususan, Cambridge University of Press tashkilotining yozishicha Xitoy "Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zo bo'lganidan so'ng, ba'zi davlatlar monopolistik amaliyotlarni kamaytirishga va raqobatni oshirishga muvaffaq bo'ldi. 2001-yilda JSTga qo'shilgan Xitoy davlati monopoliyalarni cheklash va bozorlarga barcha a'zo davlatlar tadbirkorlik uchun kirishiga bir qator imkoniyatlar yaratdi. Bu o'zgarishlar ichki sektorlarda raqobatni kuchaytirib, chet el investitsiyalarini jalb qilishga yordam berdi, bu esa bozorni diversifikatsiya qilish va iqtisodiy o'sishga olib keldi.

⁸ Jahon savdo tashkiloti. Tarjimonlar jamoasi. Yuridik adabiyotlar publish – 2022-yil, 13-17-betlar

⁹ <https://uzreport.news/society/ozbekistonda-tabiiy-monopoliyalar-royxati-elon-qilindi>

Masalan, Xitoyning yalpi ichki mahsuloti tez o'sgan, 2020-yilga kelib global o'sishning o'rtacha 30 foizini tashkil qilgan, bu esa nafaqat Xitoy, balki global bozorga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan.”¹⁰ Chunki JSTning GATT kelishuviga ko'ra biror bir JSTga a'zo davlat o'zining ichki mahalliy ishlab chiqaruvchilarga va tadbirkorlarga berilgan imtiyozlarni boshqa a'zo davlatlarga hech qanday shartlarsiz taqdim etishi kerak. Ushbu norma GATTning 1-moddasida belgilab qo'yilgan.

Keyingi asosiy masalalardan biri bu ochiq bozor tamoyili asosida erkin tovar almashinuvidir. Chunki JSTga a'zo davlatlar o'zaro bir-birilarining bozorlariga erkin kira olish tamoyili asosida, kelishilgan shartlarga muvofiq amalga oshirishadi. Masalan, bugungi kunda O'zbekiston hududiga chet davlatlardan kirib keladigan avtomobillarga turli xil davlat bojlar va yig'imlari mavjud. Ushbu yig'imlar va bojlar nafaqat tadbirkorlarga balki fuqarolarga ham iqtisodiy tomondan avtomobil xarid qilishda qiyinchiliklar olib keladi. Boshqa davlat tadbirkorlari O'zbekiston bozoriga kirishi uchun juda yuqori bo'lgan bojxona to'lovlari va yig'imlari to'lashi zarur. Ushbu norma esa o'ziga xos tarzda proteksionizm siyosatining yaqqol namunasi deb bilishimiz mumkin. JSTga a'zolik esa avvalo barcha davlatlar bozorlariga erkin kira olish degani.

JST davlatlarga o'z mahsulotlarini xorijiy bozorga kirishini yengillashtirish imkonini beradi. Bozorga kirish imkoniyatlari yaxshilangani sababli, mahalliy ishlab chiqaruvchilar xalqaro miqyosda o'z mahsulotlarini sotish imkoniga ega bo'lishadi va iqtisodiy ko'lam kengayadi. JST qoidalari asosida davlatlar savdoni ochiq va barqaror qilish orqali investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu esa mahalliy kompaniyalar va xorijiy investorlar uchun qulay muhit yaratadi va natijada yangi ish o'rinlari yaratiladi. Xususan, xorijiy investitsiyalar ko'p bo'lganda, iqtisodiyotga ko'proq kapital kiradi va infratuzilma rivojlanadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, bugungi kunda butun dunyoning 166 davlat JSTning a'zolari hisoblanadi. Albatta a'zolik yuqorida keltirilganidek oson kechadigan jarayon emas, u ko'plab ikki tomonlama davlatlararo shartnomalar va kelishuvlarni amalga oshirishni talab qiladi. O'zbekiston ham barcha davlatlar bilan o'zaro tijorat aloqalarini yo'lga qo'yish uchun shartnomalarni kelishib imzolashi kerak. Har bir davlat o'zining etnik hamda qadriyatlaridan kelib chiqqan holda o'ziga xos shartlarni ma'lum qiladi, masalan Saudiya Arabistoniga shar'an harom qilingan mahsulotlarni tijorat maqsadida olib kirish taqiqlangan bo'lishi mumkin, bu ushbu davlatning qadriyatlari va diniy e'tiqodidan kelib chiqib qaror qilingan. Xuddi shuningdek O'zbekiston ham o'z fuqarolari va xalqining urf-odati, e'tiqodi va qadriyatlaridan kelib chiqib boshqa davlat bilan shartnomalar imzolaydi va bugungi kunda deyarli 20 ta davlat bilan kelishuvga erishdi. JSTga a'zolik yuqoridagi Xitoy misoliga ko'ra ham, har bir davlatga ijobiy iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga katta hissa qo'shadi. Yaqin yillar ichida O'zbekiston ham JSTning a'zosi sifatida kirishi umid qilinmoqda.

REFERENCES

1. Evenett, Simon J., and Carlos A. Primo Braga. *WTO accession: lessons from experience*. World Bank Group, 2005. – 2p

¹⁰<https://www.cambridge.org/core/books/china-and-the-wto/20-years-on/1EBC40A5F9C0972D5DC8DBD97FD77ECA>

2. Bhattasali, Deepak, Shantong Li, and William J. Martin, eds. *China and the WTO: accession, policy reform, and poverty reduction strategies*. World Bank Publications, 2004.
3. Jahon savdo tashkiloti. Tarjimonlar jamoasi. Yuridik adabiyotlar publish – 2022-yil, 13-17-betlar
4. WTO Accession for countries and transition. The World Bank development research group – 1998y.
5. The world trade organization. Amrita Narlikar. Oxfor university press – 2005y.
6. <https://www.cambridge.org>
7. <https://www.spot.uz>
8. <https://www.transparency.org>
9. <https://www.wto.org>